

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK XALQ MUSIQA SAN‘ATI VA
IJODIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI,
ZAMONAVIY TARAQQIYOT
TENDENSIYALARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari

2023-yil 23-sentabr

Бухоро – 2023

O'zbek xalq musiqa san'ati va ijodiyotining tarixiy ildizlari, zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari" // Mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani. Buxoro "Durdoni" nashriyoti, 2023.

Anjumanning dasturiy qo'mitasi

O.X. Xamidov	BuxDU Universitet rektori, rais;
T.H. Rasulov	BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
A.R. Zokirov	O'zMMSI O'quv ishlari bo'yicha prorektor
F.N.Nurulloyev	Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i
S.S.Azimov	BuxDU San'atshunoslik fakulteti dekani.
T.I. Rajabov	BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası mudiri.
D.Yu.Ro'ziyev	Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası professori, a'zo;
B.I.Mustafoev	Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası dotsenti, a'zo;
O.M.Axmedova	Yu.Rajabiy O'zMMSI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f.f.n., professor v.b
A.S.Sunatillayev	Yu.Rajabiy O'zMMSI O'zbek milliy musiqa san'ati instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'lim boshlig'i.

Anjumanning tashkiliy qo'mitasi:

1. T.H. Rasulov BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais;
2. O.I. Karimov BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası dotsenti;
3. O'U. Rashidov BuxDU Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor, a'zo;
4. F.N. Nurulloyev BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, a'zo;
5. Sh.B.Nurlibayevna. Yu.Rajabiy O'zMMSI "O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrası mudiri
6. T.I. Rajabov BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası mudiri.
7. R.I.Oripova Yu.Rajabiy O'zMMSI O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrası mudiri
8. Sh.X.Kamolov BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;

Mas'ul muharrir:

B.I.Mustafoev Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası dotsenti

Taqrizchi:

D.Yu.Ro'ziyev Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası professori

Tasviriy san'at psixologiyasi tadqiqotchisi V.S.Kuzin qobiliyat deganda shunday psixologik xususiyat vositani tushunish kerakki, "ular aniq faoliyat turi bo'yicha ishni yuqori sifatda bajarilishi uchun kerak bo'lgan shartlar" deb izohlaydi.

O'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni aniqlash. Ijodiy potensial samaraga qarab baholanadi. Uni aniqlash, oldindan ko'ra olish kerak. O'quvchilarning ijodiy iqtidorini aniqlash uchun faqat o'zlashtirishga emas, noakademik qiziqishlarga ham e'tibor berish kerak bo'ladi.

Ijodiy faoliyat yangi narsa ixtiro qilish, yangi model yaratish, original san'at asarini dunyoga keltirishdir. Shu bilan birga, bor modelning faqat kichik bir jihatiga o'zgarish kiritish, mustaqil qarorga kelish, shaxsiy xulosa chiqarish ham ijodiy faoliyat hisoblanadi. Demak, shaxs o'z hayot pozitsiyasini belgilashi, tig'iz vaziyatlarda etalon bo'yicha emas, yangi, o'z fikri bilan harakat qilishi ham ijodiy faoliyatdir. Shuning uchun ijodiy qobiliyatlar har bir insonga xos, deyiladi. Ijodiy faoliyat natijasida yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar vujudga keladi. Ijod o'z mohiyati jihatidan tarixiy-madaniy hodisa bo'lib, shaxs va jarayon kabi psixologik aspektlarga ega. U shaxsda qobiliyatlar, motivlar, bilim va malakalar borligi tufayli yangiligi, originalligi, noyobligi bilan ajralib turuvchi mahsulot yaratilishini ta'kidlaydi. Shaxsning bu xususiyatlarini o'rganish natijasida tasavvurning, intuistiyaning, aqliy faollikning anglanmagan komponentlari, shuningdek, shaxsning o'zini anglashga, o'z yaratuvchilik imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan ehtiyojlari ruyobga chiqadi. Ijod madaniyatning qaysi sohasida qo'llansa (ishlab chiqarish, texnika, san'at, fan, siyosat, pedagogika va b.), ularning har birida ijod psixologiyasining o'ziga xosligini, shuningdek, ular orasida munosabat xarakterini aniqlashni talab etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziev E. Psixologiya. Toshkent, «O'qituvchi», 2003.
2. Karimova V. Psixologiya. Toshkent, 2000.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, ToshDPU, 2002.
4. Boymetov B. qalamtasvir o'qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar. Toshkent: 1995.
5. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi Toshkent – 2006 yil O'zbekiston Respublikasi oiliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

BUXORO ME'MORCHILIK MAKTABINING XVI ASRDAGI TADRIJI VA O'ZIGA XOSLIGI.

Bakayev Shodijon Shokirovich.

*Buxoro Davlat universiteti. Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi dotsenti. [Tel:93-451-02-04](tel:93-451-02-04)
bakayevshodijon@gmail.com*

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'rta Osiyo me'morchiligining tarixi, aynan Buxoro me'morchilik maktabining tarixi, kelib chiqishi va qadimiy shaharsozlikda mavjud analarini o'qitish, o'rgatish orqali yoshlarni ma'naviy dunyoqarashini shakillantirish uchun hozirgi kungacha saqlanib kelgan sir asrorlarini o'rganish va yoshlarni shu orqali badiiy didini o'stirish, qadriyatlarini ulug'laydigan, mohir me'morchilik kasbining ustasi bo'lib etishishlarida katta ahamiyat kasb etishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, Toqi Zargaron, Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi.

Klyuchevie slova: Buxarskoe xanstvo, Taki Zargaron, mechet' Kalon, medrese Mir Arab.

Key words: Bukhara Khanate, Taki Zargaron, Kalon mosque, Mir Arab madrasah.

O'rta asrlarda O'rta Osiyo me'morchiligini tahlil qilib tarixga nazar soladigan bo'lsak, Shayboniylar Movarounnahmi zabt etgach Buxoroning iqtisodiy va madaniy markazi sifatida mavqei oshib bordi. 1533 yilda poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chiriladi, ayniqsa Abdullaxon davrida (1557—1598 yillar) Buxoro poytaxt shaharga aylantirilib, Buxoro xonligi yuzaga keldi va kop ishlar amalga oshirildi. Akademik V. V. Bartold Abdullaxonni qoraxoniylar

Arslonxon va Amir Temurdan keyingi buyuk quruvchi deb atagan. Darhaqiqat u qurdirgan bino va inshootlarni bugungi kunda ham Buxoro viloyatidan Sirdaryo vohalarigacha uchratish mumkin.

Abdullaxon vafotidan so'ng Buxoro xonligi tarqoq feodal mulklarga bolinib ketdi. Xurosonni Eron shohi Abbas bosib olgan bolsa, Toshkent qozoq xoni Tavakkal tasarufiga otadi. Xiva xonligi mustaqillikka erishadi. XVI asr oxirlaridan 1753 yilgacha Buxoro xonligining qolgan hududida ashtarxoniylar sulolasi hukmronlik qildi. XVIII asrda Fargona Buxoro xonligi ta'siridan chiqib mustaqil idoraga ega boladi. Buxoro xonligi Eron shohi Nodirshohning vasiyligiga aylanib qoldi. Nodirshoh Buxoro hokimiyatini oz vakili Muhammad Hakim otaliq'ga topshiradi va "otaliq" boshqaruvi kelib chiqdi. 1753 yilda taxtga chiqqan uning og'li Muhammad Rahim otaliq o'zini amir deb e'lon qildi. Natijada 1753—1920 yillarda Buxoroda hukmronlik qilgan mangitlar sulolasining Buxoro amirligi yuzaga keldi.

Shayboniylar sulolasi davrida Buxoro Shahristoni kengaytirilib, ark uning ichida qolib ketgan. Abdullaxon shahar devorlari, darvozalari va fasllarni qayta qurdirgan. XVI asrning ikkinchi yarmida shahar kengaytirilib Joybori shayxlar mulki hisoblanmish shaharning garbiy qismi ham devor bilan orab olingan. Binolarni ansambl tarzida joylashtirishga e'tibor berilib shahar strukturasi qayta tuziladi.

Chunonchi asosiy chorrahalarda Toqi Ordofurushon, Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon va Toqi Tirgaron nomli beshita Chorsu tipidagi gumbazli savdo inshootlari bunyod etilgan. Bu savdo gumbazlarining birinchisi va oxirgisi bizning asrimizda vayrona holiga kelganligi tufayli buzib tashlangan.

Inshootning markaziy qismi sakkizta ozaro kesishgan toqlar vositasida kopburchakli ustivor ustiga qondirilgan ulkan gumbazdan iborat. Gumbaz osti ustivorining o'n olti panjarasi bor. Ichki tomonida esa toqlar kesishuvidan hosil bo'lgan gajjak (shitovidniy parus) devorlar bilan ko'pburchakni bog'lab turibdi.

Markaziy gumbaz ichidagi bino burchaklari to'rtta va uning atrofidagi usti kichkina gumbazchalar bilan yopilgan yo'lak qismi esa sakkiz ravoqli qilib qurilgan. Yo'lak tashqi devorining ichkari tomonida yana 16 ta ravoqli ishlangan. Har qaysi peshtoqning ikki yon qismida (old tomonida) yana 2 tadan ravoqlar ishlangan bolib, ular jami 36 ta do'kon va ustaxonalar joylashishiga moljallangan.

Toqi Zargarondan janubga chiqadigan peshtoqi yonida- bizning asrimizda buzib tashlangan osha davrda Hind karvonsaroyi deb atalgan karvonsaroy bo'lgan. Undan quyiroqda esa 1577 yilda qurilgan savdo inshooti — Abdullaxon Timi joylashgan. Agar Toq va Chorsularda kechasi do'kon va ustaxonalar yopilib, binoni kesib otgan kochalar otish joyi sifatida foydalanilgan bo'lsa, Tim yopiq imorat tarzida ishlatilgan va shu jihati bilan bugungi kundagi katta magazinlarni eslatadi. Abdullaxon Timi kamyob va qimmatbaho gazmollar savdosiga moljallab qurilgan. Bu imorat tarhi ham kvadrat shaklida bolib, binoning bosh kirish yollari Toqi Zargarondan Toqi Telpakfurushonga boriladigan savdo kochasiga qaratilib, kochaning sharqiy betida qurilgan. Bino tarz (fasad)ining markazida bir asosiy va ikki chekkasida yana ikkita kichikroq peshtoqli eshiklar ornatilgan. Imorat markazida sakkiz burchakli pastak ustivorga katta asosiy gumbaz ornatilgan. Uning sharq va g'arbida asosiy yo'lak ustiga chozinchoq shaklidagi tuymukli gumbazchalar qurilgan. Shuningdek katta gumbazda ham yoritgich tuymuklar mavjud. Bino ichida jami 55 ta savdo ravoqlari joylashgan.

Telpakfurushon toqi savdo gumbazi o'zining me'moriy yechimi jihatidan boshqa savdo gumbazlari va umuman gumbazli binolar ichida ajralib turadi. Uning markaziy gumbazi 6 ta pilpoyaga ornatilgan. Gumbaz va mahrut orasi pastak dumaloq ustivor shakliga ega. Gumbaz markazi va mahrut devorlaridan yorug'lik tushadigan maxsus tuymuklar ishlangan.

Toqi Telpakfurushonning shimoliy yolagida balxi gumbazlari, ichkariroqda tort katta ravoqqa engashtirilgan kichik ravoqchalarga qurilgan gumbaz, gajjak ustivorli gumbaz singari turli konstruksiyalar qollanilgan.

Yana bir savdo gumbazi bu oldingi ikkitasidan janubiy sharqroq tomonda joylashgan

Buxoro arki, savdo gumbazlari bozor va rastalarga tutash markaziy kochalar yonalishlarini belgilab bergan bolsa, shaharning umumiy qiyofasini uning me'moriy ansambllarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shulardan ansambl sifatida xonlik davrida ilk shakllangan Poyi Minor ansamblidir. Bu ansambl 1127 yilda qurilgan mashhur Minorai Kalonning ikki yon tomonida mavjud bo'lgan oldingi binolar orniga qaytadan 1514 yilda bunyod etilgan Masjidi Kalon (Katta masjid) va 1530—1536 yillarda qad kotargan Madrasai Miri Arab inshootlaridan iborat.

Masjidi Kalon jom'e masjidi sifatida IX asrdan mavjud poydevor ustiga qaytadan qurilgan bo'lib tomonlari 127x78 m dan iborat. Bu yerda bir vaqtning ozida 12, mingga qadar odam namoz oqishi mumkin bo'lgan. Binoning bosh peshtoqi sharqqa qaratib qurilgan. Darvozaxona esa tort toqqa mingashtirilgan "linga zarba" uslubidagi yana tortta yarim toqli sakkizburchak ustiga ornatilgan har ichki qirasi yarim toq shaklida ishlangan sakkiz yoqli gumbaz bilan juda ham go'zal tarzda yopilgan. Katta peshtoqning orqa tomonida hovliga qarata yana bir peshtoq ishlangan. Bu usul madrasalar va jom'e masjidlariga xosdir. Hovlining torida peshtoqli moviy gumbaz bilan yopilgan maqsura bor. Tortburchak hovli yon tomonlari tort qatorli, old va tor qismi 5 qatorli yolak tashkil etuvchi g'ishtin ustunli ayvonlardan iborat. Hovli gir atrofi toqlar bilan orab olingan bo'lib ikki yon tomoni markazlarida ham ikki kichikroq peshtoqlar bor. Ayvonlar yopmasidagi 288 gumbazchani 208 g'ishtli ustunlar ko'tarib turibdi. Hovlining maqsuraga yaqinroq qismida usti gumbazcha bilan yopilgan sakkiz darchali chortoq tipidagi mezana qad ko'tarib turibdi. Mehrob, gumbaz ustivori maqsura va kirish peshtoqlarida koshinkorlik, koshinburush va parchin ishlangan. Hovli va dargoh tarzlarida silliqlangan pishiq gisht oralariga ko'k, moviy, oq rangli koshinlar qo'shib terilgan.

Masjidi Kalon ro'parasida sal balandroq kotarilgan Mir Arab madrasasi an'anaviy me'moriy usul asosida qurilgan. Hashamdor bosh peshtoq, tashqarida ikki burchakda ikki guldasta, peshtoq va guldastalar oraligida baland dumaloq ustivor (baraban)larga ornatilgan ikki feruza gumbaz. O'ng tomondagi gumbaz ostidagi xona bugungi kunda ham masjid vazifasini o'taydi.

Darsxona vazifasini bajarishi lozim bo'lgan chap tomondagi bolmasida esa Ubaydulloxon hamda madrasa bunyodkori Abdulla Yamaniy o'z yaqinlari bilan ko'milgan. Hujralar bosh peshtoq tomonidagi kochaga (Masjidi Kalonga) hamda hovlining tort tomoniga qaratib ikki qator qilib qurilgan. Hovli burchaklari hujra ravoqlari bilan chegaralangan va tort devorning o'rtasida chuqur ravoqli tortta peshtoq ishlangan. Hovlidagi ayvonning yuqori qismida panjara bo'lgan. Bino pardozida koshinkorlik va koshin-burush ishlatilgan.

Mir Arab madrasasi 1520-1536 yillarda Mir arab nomi bilan tanilgan. Mir Arab madrasasining peshtoqi Masjidi Kalonning portali bilan yagona o'qda joylashgan. Rejalashtirilgan madrasa qurilishi uchun an'anaviy hajm rejaviy yechim qabul qilingan. Fasadning ortasida birinchi bo'lib ko'zga tashlanadigan yirik peshtoq joylashtirilgan. Bosh fasad burchaklarida vazmin kichik minora – guldasta tiklangan.

Me'morchilik va shaharozlikda Mir Arab madrasasini Masjidi Kalon va Minorai Kalondan alohida holda tasavvur qilib bolmaydi.

Xulosa qilib aytganda gumbaz peshtoqli me'moriy obidalarda mahalliy me'morlar ijodi namoyon bo'lgan deb aytish ancha qiyin. Buxoroda bu davrda rangli ganch ba'zi hollarda koshinlar bilan bezalgan ko'plab masjid va madrasalar qurilgan. Ularning eng yaxshilari ustunli ayvonga ega bo'lib, o'ymakorlik va naqqoshlik bilan bezalgan. Ustunlar va shiplar shakli sharafalar bilan badiiy bezalgan. Unchalik katta bo'lmagan masjidning shiplarida turli berkitish usullari qo'llanilgan. Ular o'zining bezagi bilan saroy xonalaridan yoki boy mehmonxonalardan deyarli farq qilishmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ular fuqaro me'morligining namunalari desak xato bo'lmaydi.

Bu me'morlik maktablari davomchi ijodkor yoshlari ham qadimiy ananalarga boy san'at turini rivojlantirib kelgusi avlodga etkazadilar deb ishonamiz.

Qisqacha maxsus lug'at

Gumbaz – O'rta Osiyo me'morchiligida keng qo'llanilgan yopma turi.

Daxana - peshtoq sirtidagi tokchasimon shakllar.

Dolon - usti berk yolak.
Koshin - sirtiga sir berib ishlangan maxsus pardozi gishtchalari.
Koshinburush - koshin bo'laklaridan yigib ishlanadigan naqshbandlik (mozaika).
Tim - yopiq savdo inshooti (passaj).
Toq - arka, ba'zan sferakonik gumbaz.

Asosiy adabiyotlar:

1. Mirzayev Sh.R., Voxitov M.M. Me'morchilik II-qism. Fuqarolik binolari.Darslik. Toshkent, 2010 y. -256 b.
- 2.VaxitovM.M._Mirzayev.Sh.R.,Me'morchilik_I_qism_Me'morchilik_tarixi."Tafakkur" Toshkent, 2010 y.
3. Zohidov P.Sh.. Me'mor olami. Me'moriy lug'at. Toshkent, 1996 y.
4. Zohidov P.Sh.. Me'mor san'ati. Toshkent, 1978 y.
5. Axmedov M. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, "O'zbekiston".1995 y.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH
KONSEPSIYASINI YARATISHDA O'QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH**

Avliyakulova Nafisa Muzafarovna

Buxdu San'atshunoslik fakulteti

Tasviriy va amaliy san'at kafedrasida o'qituvchisi

Tel: +998973031400

El pochta: n.m.avliyakulovanafisa@buxdu.uz

Kalit so'zlar: konsepsiyasi, refleksiv-faoliyatli, tizimli, innovatsion tayyorgarligi, kasbiy kompetentlik.

O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida davlat qurilishi va huquqiy siyosatning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, uning maqsad hamda vazifalarini islohotlarning bugungi taraqqiyoti asosida shakllantirib borish zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash konsepsiyasini yaratishda o'qituvchi shaxsini shakllantirishning bir butun jarayonini loyihalashni va faoliyat olib borishini ta'minlovchi tizimli, refleksiv-faoliyatli, individual-ijodiy yondashuvlar asos qilib olinadi.

Refleksiv-faoliyatli yondashuvni amalga oshirish esa o'qituvchining o'z faoliyatiga nisbatan, faoliyati sifatida o'quvchi shaxsini rivojlantirish borasidagi samaradorligini tanqidiy tahlil etish, mulohaza qilish va uni baholash maqsadida o'ziga nisbatan ham faol tadqiqiy mavqeiga kirishish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Individual-ijodiy yondashuv o'qituvchida ijodiy individuallikni aniqlash va shakllantirish, unda innovatsion ongni rivojlantirishni takrorlanmas faoliyat texnologiyasini ta'minlovchi shaxsiy darajaga olib chiqadi.

Ushbu faoliyat mustaqil fikrlashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

Bo'lg'usi o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi uzluksiz ta'lim sharoitida pedagogik innovatsion to'liq mazmun-mohiyatini egallash bo'yicha uning nazariy, amaliy va psixologik-fiziologik saviyasidir. Bunday tayyorlik pedagogik tizim natijasi sifatida nazariya va amaliyotning bir butunligini ta'minlash, o'quv ishlariga vijdonan munosabatda bo'lishni tarbiyalash hamda ijodiy faollikni rivojlantirish asosida o'quvchilarda ma'lum fanlar, umumkasbiy faoliyat ko'rinishlari bo'yicha bir butun bilimlar va malakalarni shakllantirishga ko'mak berishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga

Абдуллаев Сухроб Сайфуллаевич. ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РИСУНКУ СТУДЕНТОВ ПЕРВОГО КУРСА НАПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ «ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО И ИНЖЕНЕРНАЯ ГРАФИКА».....	172
Azimova Muhayyo Barotovna. BUXORO ANANAVIY ZARGARLIK SAN'ATI. ALISHER XAYDAROV UJODI.....	174
G.R. Ostonova. Tasviriy san'atda qobiliyat va ijod psixologiyasi.....	176
Bakayev Shodijon Shokirovich. BUXORO ME'MORCHILIK MAKTABINING XVI ASRDAGI TADRIJI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	178
Avliyakulova Nafisa Muzafarovna. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH KONSEPSIYASINI YARATISHDA O'QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH.....	181
Jumayev Qoryog 'di Jo'rayevich. P.P. Benkov o 'zbek rangtasvirining asoschisi.....	183
Ёдгоров Н.Ж. Бухоронинг маданий тарихий меросини асрашдаги муаммолар ва ечимлар.....	185

PROFESSOR BAXROM XUDOYNAZAROVICH MADRIMOV XOTISASIGA BAG' ISHLANGAN MAQOLALAR.....	187
Иноятов С.И. Хоразму Бухорони яккадам қилган забардас санъатшунос олим.....	187
С.Қ.Қаҳҳоров. Кўхна Хиванинг севишли фарзанди эди.....	188
Дурдимурод Дурдиев. Меҳнаткаш олим, моҳир педагог, самимий инсон эди.....	189
С.Ф. Абдуллаев. Волшебная сила музыки.....	189
Тўхтасин Ибодович Ражабов. Устозлик буюк мақом.....	192
Баротов Ш.Р. Саодатли санъаткор ва иқтидорли олим эди.....	193
Б. Мустафоев. Самимий дўст, бағри кенг устоз ва фидойи раҳбар эди.....	194
А.М.Қадилов. Хоразмнинг илм-маърифатли фарзанди эди.....	195
Мухторов Э.М. Хоразм мусиқа санъатини Бухорога олиб кирган олим.....	197
Азизов Санжар Самадович. Мардлик, садоқат феъланда бор.....	198
Аскар Хидиров. Икки юрт фарзанди.....	199
Said Bolta-Zoda Saidiy. Namkasblar do'sti, shogirdlarning muhtaram ustozlari edi!.....	199
Давлатназар Юсупов. Шогирдлар камоли - устоз қувончи.....	200
Рахимов Б. Садоқатли дўст инсон ҳаётининг мустақкам таянчи.....	201
Мухамедов Тўлқинжон Джураевич. Санъатни илмга боғлаган олим.....	202
Ш.У.Норова. Ко'нна Хоразмдан уянгранган судо.....	204
Қодирова Машхура. Санъат фидойиси эди.....	205
А.А.Хайдаров. Sermahsul musiqashunos olim.....	205
Umurova Ma'rifat Yoshiyevna. Sharafli maqsadlarga umr baxshida qilgan ustozlar hamisha хотирамизда yashaydi.....	206